



YASHIL IQTISODIYOTGA O'TISH SHAROITIDA TABIIY KAPITALNI JAMG'ARISHNING MAKROIQTISODIY USULLARI

Urunbayev Saparbek Samatovich

Toshkent arxitektura-qurilish universiteti

ORCID-0009-0004-0464-6893

urunbayevsafarbek@gmail.com

Annotatsiya. Maqolada barqaror tabiiy kapitalni makro darajada jamg'arish yoki makroiqtisodiy usullar, avvalo, davlat tomonidan tartibga solish yo'nalishlarida namoyon bo'ladi. Davlat tomonidan tartibga solish tizimida qonunlar, me'yoriy-huquqiy va tashkiliy-iqtisodiy asoslar ishlab chiqish bo'yicha taklif va tavsiyalar berilgan.

Kalit so'zlar: ekotizim, tabiiy kapital, inson kapitali, sanoat, iqlim, iqtisodiy innovatsiya, barqaror rivojlanish, konvensiya, yashil iqtisodiyot.

МАКРОЭКОНОМИЧЕСКИЕ МЕТОДЫ НАКОПЛЕНИЯ ПРИРОДНОГО КАПИТАЛА В УСЛОВИЯХ ПЕРЕХОДА К ЗЕЛЕННОЙ ЭКОНОМИКЕ

Урунбаев Сапарбек Саматович

Ташкентский архитектурно-строительный университет

Аннотация. В статье рассматривается накопление устойчивого природного капитала на макроуровне, или макроэкономические методы, которые проявляются, прежде всего, в направлениях государственного регулирования. Даны предложения и рекомендации по разработке законов, нормативно-правовых и организационно-экономических основ системы государственного регулирования.

Ключевые слова: экосистема, природный капитал, человеческий капитал, промышленность, климат, экономические инновации, устойчивое развитие, конвенция, зеленая экономика.

MACROECONOMIC METHODS OF ACCUMULATING NATURAL CAPITAL IN THE CONTEXT OF THE TRANSITION TO A GREEN ECONOMY

Urunbayev Saparbek Samatovich

Tashkent University of Architecture and Construction

Abstract. The article discusses the accumulation of sustainable natural capital at the macro level, or macroeconomic methods, which are manifested primarily in the areas of government regulation. Suggestions and recommendations on the development of laws, and regulatory and organizational and economic foundations of the system of state regulation are given.

Keywords: ecosystem, natural capital, human capital, industry, climate, economic innovation, sustainable development, convention, green economy.

Kirish.

Bugungi kunga kelib “Yashil iqtisodiyot”ga o‘tish jarayoni har bir mamlakat uchun alohida ahamiyat kasb etib, tabiiy kapital, inson kapitali va mamlakatning iqtisodiy rivojlanish darajasiga kabi xususiyatlarga bevosita bog‘liq holda ro‘y beradi. Shuning uchun avvalo, o‘tish jarayoni uchun qulay (huquqiy infratuzilma, rag‘batlantiruvchi omillar va h.k.) muhit yaratish zarur.

O‘zbekiston iqtisodiyotida tarkibiy o‘zgarishlarning uzoq muddatli strategiyasini ishlab chiqish nafaqat ichki, balki global jarayonlar va muammolarni hisobga olishni taqozo etadi. Shu nuqtai nazardan barqaror iqtisodiy rivojlanishning yangi, resurslardan samarali foydalanishga asoslangan, innovatsion iqtisodiyotga o‘tish izchil tarkibiy o‘zgarishlarni amalga oshirish va barqaror taraqqiyotning eng samarali vositalaridan biri hisoblanadi.

Barqaror iqtisodiy o‘sishni ta‘minlash, “sof texnologiyalar”ga nisbatan innovatsion yondashish, “Yashil iqtisodiyot”ni shakllantirish muammolari xalqaro iqtisodiy, ekologik, investitsion forumlarda muntazam ravishda muhokama etib kelinmoqda. O‘zbekistonda olib borilayotgan ijtimoiy-iqtisodiy islohotlar sharoitida iqtisodiyotning innovatsion rivojlantirishda axborot-kommunikatsiya texnologiyalaridan keng foydalanishga qaratilgan izchil chora-tadbirlar amalga oshirilmoqda.

O‘zbekistonda tabiiy kapitalni jamg‘arish bilan bog‘liq faoliyatni yuritish qonunlar, Prezident farmonlari, hukumat qarorlari, tarmoq strategiyalari va rejalaridan iborat. Ba’zi qonunlar atrof-muhitni muhofaza qilish va qayta tiklanadigan energiya manbalaridan foydalanish sohasini tartibga soladi.

Bunday sharoitda davlat hokimiyati va boshqaruv idoralarning tabiatni muhofaza etishga taalluqli huquqiy munosabatlarni tartibga solish sohasidagi vakolatlari, aholining tabiatni muhofaza qilish sohasidagi huquq va majburiyatlari, atrof tabiiy muhit sifatini normativlar bilan tartibga solish, tabiiy resurslardan foydalanishni tartibga solish, ekologiya ekspertizasi va nazorati, tabiatni muhofaza qilishni ta‘minlashning iqtisodiy chora-tadbirlari, favqulodda ekologiya vaziyatlari, ekologiya talablari, tabiatni muhofaza qilishga doir javobgarlik, tabiatni muhofaza qilishga oid nizolarni hal qilish masalalari ko‘rib chiqilgan.

Adabiyotlar sharhi.

Bugungi kunga kelib, antropogen omil tufayli ekologiyaga insoniyat tomonidan yetkazilayotgan zarar miqdori kun sayin ortib bormoqda. Tabiiyki bu jarayonni oldini olish va uning ta’sirini kamaytirish jahon hamjamiyati oldida turgan eng dolzarb vazifalardan biri sanaladi. Masalagaqisqa muddatli yechim sifatida, BMTning Iqlim o‘zgarishi to‘g‘risidagi doiraviy konvensiyasi doirasida, 2015 yil 12 dekabrda konsensus asosida Parij kelishuvi qabul qilingan edi.

O‘zbekiston ham mazkur sohadagi islohotlarni amaliyotga joriy etishda mintaqada yetakchi davlatlardan biri sanaladi. O‘zbekistonda tabiiy kapitalni jamg‘arish bilan bog‘liq faoliyatni yuritish qonunlar, Prezident farmonlari, hukumat qarorlari, tarmoq strategiyalari va rejalaridan iborat bir neshta normativ huquqiy hujjatlar qabul qilinganligi davlatning soha istiqboliga befarq emasligidan darak. Xususan, 2019 yil 4 oktabrdagi PQ-4477-sonli Qarorga asosan, O‘zbekistonning 2019 — 2030 yillar davrida O‘zbekiston Respublikasining «yashil» iqtisodiyotga o‘tish strategiyasi tasdiqlangan. Unga ko‘ra, mazkur davrda umumiy elektr energiyasi ehtiyojida qayta tiklanuvchi energoresurslar ulushini 25% ga yetkazish, transport xarajatlarini qisqartirish va transport sohasining samarali faoliyatini ta‘minlashga qaratilgan yagona kompleks rivojlanish siyosatini shakllantirish, shaharni uzoq muddatli rivojlantirish rejaları va ekologik xavfsizlik choralariga muvofiq «yashil» transportni rivojlantirish, «yashil» kreditlash, venchur moliyalashtirish tizimini joriy etish kabi vazifalar belgilab berilgan.

Vazirlar Mahkamasining 25.11.2020 yildagi «Respublika hududlarida o‘rmonzorlar, shuningdek, Orol dengizi va Orolbo‘yi hududlarida «Yashil qoplamalar» barpo etish bo‘yicha qo‘shimcha chora-tadbirlar to‘g‘risida»gi 745-son qarori tasdiqlangan. Unga ko‘ra, Orolbo‘yi

hududi ekologik fojining markaziga aylandi. Biz mavjud ahvolni yaxshilash uchun bu yerda ikki million gektar yangi o'simlik maydonlari va daraxtzorlar yaratish, tuproq qatlamini shakllantirish bo'yicha ulkan ishlarni amalga oshirmoqdamiz.

Vaxabov va Xojibakievning (2020) "Yashil iqtisodiyot" nomli darsligida tabiiy resurslarni tejash va ekologik texnologiyalarni joriy qilish bo'yicha nazariy va amaliy masalalar yoritilgan. Bu asar tabiiy kapitalni jamg'arishning ekologik asoslarini o'rganishda muhim manba hisoblanadi.

Tadqiqot metodologiyasi.

Tadqiqot jarayonida mavzuga oid mantiqiy taqqoslash, umumlashtirish, ilmiy mushohada, tizimli yondashuv, statistik hamda qiyosiy tahlil usullaridan foydalanilgan. Shuningdek, yashil iqtisodiyot kontseptsiyasining shakllanishi va rivojlanishida turli omillarning ta'sirini baholashda korrelatsion va regression usullardan foydalanildi.

Tahlil va natijalar muhokamasi.

Ma'lumki, O'zbekiston Respublikasi Prezidentining "2022-2026 yillarga mo'ljallangan Yangi O'zbekistonning taraqqiyot strategiyasi to'g'risida"gi farmonida yettinchi ustuvor yo'nalishning 79 maqsadi ekologik muammolarni bartaraf etish, Butunjahon ekologiya xartiyasini ishlab chiqish tashabbusini ilgari surish, respublika hududida amalga oshirilayotgan xo'jalik va boshqa turdagi faoliyatning ekologik talablarga muvofiqligini belgilash yuzasidan davlat ekologik ekspertizasini o'tkazish belgilangan. 80-maqсад esa «Yashil makon» umummilliy loyihasini amalga oshirishga qaratilgan. Bunda jami rejalashtirilgan 560 ming gektar yer maydonining 375 ming gektarida o'rmonzor barpo etiladi. Qoraqalpog'iston Respublikasidagi o'rmon fondi yerlari va Orol dengizining suvi qurigan hududlarida, Xorazm, Buxoro va Navoiy viloyatlaridagi Orolbo'yi hududlarida 172 ming gektar hamda boshqa hududlardagi o'rmon fondining tog', vodiy va to'qay yerlarida 13 ming gektar maydonga dov-daraxtlar ekish kabi vazifalar belgilangan.

Ta'kidlash o'rinliki, mamlakatimizda ham qayta tiklanuvchi energiya manbalaridan foydalanishga katta e'tibor qaratilmoqda. "O'zbekiston — 2030" Strategiyasida 2030-yilgacha erishiladigan "Yashil iqtisodiyot"ga o'tish, uning asosi bo'lgan qayta tiklanuvchi energiyadan foydalanish ko'rsatkichlarini keskin oshirish maqsadi keltirilgan. Unga ko'ra:

Qayta tiklanuvchi energiya manbalarini 25 ming MVt hamda jami iste'moldagi ulushini 40 foizga yetkazish.

Sanoatda "yashil sertifikat"lar bozorini rivojlantirish va "ekologik markirovkalash" amaliyotini joriy qilish.

3 GVt quvvatli 3 ta issiqlik elektr stansiyalarini modernizatsiya qilish orqali tabiiy gaz sarfini kamaytirish.

Ko'p qavatli uy-joylardagi xonadonlarning energiya samaradorligi (energoaudit)ni baholash tizimini joriy etish.

Shaharlarda jamoat transportini ekologik toza yoqilg'iga o'tkazish.

Iqlim o'zgarishi sohasida barcha issiqxona gazlarini qamrab oluvchi monitoring tizimini (MRV) yaratish.

Issiqxona gazlarining yalpi ichki mahsulot birligiga nisbatan 2010-yildagi darajadan 30 foizga qisqartirish kabi samaradorlik ko'rsatkichlari belgilab berilgan.

Shu bois, Orolbo'yi mintaqasi uchun Birlashgan Millatlar Tashkilotining inson xavfsizligi bo'yicha ko'p tomonlama sheriklik trust fondi tuzildi. Umid qilamizki, ushbu fond og'ir ekologik hududda yashayotgan aholiga amaliy yordam ko'rsatish uchun xalqaro hamjamiyatning tayanch platformasi bo'lib xizmat qiladi.

Mamlakatimiz Orolbo'yi mintaqasini ekologik innovatsiya va texnologiyalar hududi, deb e'lon qilish haqida Birlashgan Millatlar Tashkiloti Bosh Assambleyasining maxsus rezolyusiyasini qabul qilishni taklif etildi.

Umuman olganda, O'zbekistonda yashil iqtisodiyotga o'tish bo'yicha boshqaruv jarayonlarini tahlil qilish, yo'l xaritasini qabul qilish va davlat organlarini o'zaro bog'laydigan integratsiyalashgan chora-tadbirlar tizimi amalga oshirilmoqda.



1-rasm. “Yashil” o’sish bilan bog’liq strategiyalarni milliy va tarmoqlar miqyosida rejalashtirish.

Ma’lumki, O’zbekiston Respublikasi dengizga to’g’ridan-to’g’ri chiqishi imkoni bo’lmagan davlat hisoblanadi. Umumiy yer maydoni 448 978 km.² dan iborat. Markaziy Osiyoning markazida joylashgan bo’lib, Qozog’iston, Turkmaniston, Afg’oniston, Tojikiston va Qirg’iziston bilan chegaradosh. Aholisi 2017 yilda 32 653,9 ming kishini tashkil etgan bo’lsa, 2023 yilda 36 799,8 ming kishidan iborat bo’ldi. Markaziy Osiyoda aholi soni bo’yicha birinchi o’rinda turadi va aholisi tez sur’atlarda o’sib borayotgan mamlakatlar qatoriga kiradi. O’zbekistonning yalpi ichki mahsuloti 2017 yilda 5,3 foiz, 2020 yilda 1,6 foiz va 2023 yilda 6,0 foizga o’sdi. Sanoat ishlab chiqarishning o’sish hajmi 2017 yilda 4,6 foiz va 2023 yilda 6,0 foizni, shunga mos ravishda tog’-kon sanoati 17,6 va 1,0 foiz, qurilish ishlari 5,6 va 6,4 foiz, qishloq xo’jaligi ishlab chiqarish hajmi 2,0 va 4,1 foiz, tashqi savdo 15,4 va 23,9 foiz va korxonalar soni 4,1 va 12,0 foizni tashkil etdi

1-jadval

**O'zbekiston Respublikasining ijtimoiy-iqtisodiy rivojlanish ko'rsatkichlari
(o'tgan yilga nisbatan, foizda)**

Ko'rsatkichlar	2017 y.	2018 y.	2019 y.	2020 y.	2021y.	2022 y.	2023 y.
Aholi soni	1,7	1,8	2,0	1,9	2,1	2,1	2,2
Yalpi ichki mahsulot hajmi	5,3	5,1	5,6	1,6	7,4	5,7	6,0
Sanoat ishlab chiqarish	4,6	14,4	6,6	0,7	8,7	5,2	6,0
Tog'-kon sanoati	17,6	25,4	-1,0	-21,9	10,7	1,9	1,0
Qurilish ishlari	5,6	9,9	19,0	9,1	6,8	6,6	6,4
Qishloq xo'jaligi	2,0	0,3	2,5	3,0	4,0	3,6	4,1
Tashqi savdo	15,4	27,3	26,2	-13,1	16,0	19,8	23,9
Korxonalar soni	4,1	6,4	13,3	23,1	19,4	11,3	12,0

O'zbekiston strategik foydali qazilmalarning zaxiralari bo'yicha birinchi o'nta mamlakat qatoriga kiradi. Oltin zaxirasi bo'yicha 5-o'rin, uran zaxirasi bo'yicha 12-o'rin, mis zaxirasi bo'yicha 8-o'rin, kaliy tuzlari zaxirasi bo'yicha 4-o'rinda turadi. Tabiiy gaz va ko'mir kabi yer osti boyliklari bo'yicha 30 ta yetakchi davlatlar qatoriga kiradi. Tabiiy resurslari bo'yicha Markaziy Osiyo mintaqasida Qozog'istondan keyin 2-o'rinda turadi.

Jahonda energiya resurslarini tejash masalasining dolzarbligi tobora ortib bormoqda. Shu bois yurtimizda "yashil energetika"ni rivojlantirish va iqtisodiyotga energiya tejamkor texnologiyalarni keng joriy qilish bo'yicha katta marralar olingan.

Energiya ta'minotidagi defitsitni to'liq qoplash maqsadida 2024-yil aprel oyida har bir tuman va shaharda o'rganishlar o'tkazildi. Shu asosda 4,5 milliard kub metr gaz va 7,5 milliard kilovatt soat elektrni iqtisod qilish bo'yicha tumanbay dasturlar qabul qilindi.

Ta'kidlanganidek, ko'p hudud va tarmoqlarda hali aytarli natija bo'lgani yo'q, rahbarlari esa "so'rov bo'lmayapti" deb, bu vazifalarni o'z holiga tashlab qo'ygan.

Xususan, Toshkent viloyati rejaga nisbatan 40 million kub metr, Toshkent shahri 19 million, Samarqand 13 million, Xorazm 3,5 million kub metr gazni ko'p iste'mol qilgan.

2030-yilga borib 2016-yilga nisbatan yalpi ichki mahsulotning energiya sig'imini ikki barobarga qisqartirish bo'yicha qo'yilgan topshiriqlarni hisobga olgan holda, korxonalar va tashkilotlarga energiya sarfi hajmini qisqartirish bo'yicha aniq maqsadli parametrlarni belgilash zarurati mavjud.

Ushbu muhim vazifalarni inobatga olib, O'zbekiston Respublikasi islohotlari yalpi ichki mahsulotning energiya sig'imini yanada qisqartirish, mahsulot tannarxini kamaytirish va qayta tiklanuvchi manbalar energiyasidan foydalanishni kengaytirishga yo'naltirilgan.

Iqtisodiyotni energiya resurslari bilan ikkita vazifani hal etish orqali ta'minlanishi nazarda tutilmoqda. Birinchidan, qayta tiklanuvchi energiya resurslaridan keng foydalanish orqali yoqilg'i balansini diversifikatsiyalash imkoniyati vujudga kelishi mumkin. Bunda an'anaviy yoqilg'i turlarini qayta tiklanadigan energiya turlariga almashtirish hisobiga ularning elektr va issiqlik energiyasi ishlab chiqarishdagi hissasini kamaytirish nazarda tutilmoqda. Ikkinchidan, iqtisodiyot tarmoqlarida ishlab chiqarishning energiya sig'imini qisqartirishning uzoq muddatli dasturini amalga oshirish, sanoat faoliyati hududlarining ekologik holatini yaxshilash orqali erishiladi.

Yaqin istiqbolda ustuvor vazifa sifatida iqtisodiyotning energiya va resurs sig'imini qisqartirish, ishlab chiqarishga energiyani tejaydigan texnologiyalarni keng joriy qilish, qayta tiklanuvchi energiya manbalaridan foydalanishni kengaytirish, mehnat samaradorligini oshirish ko'zda tutilmoqda.

Yuqoridagi tahlillar O'zbekiston iqtisodiyotini rivojlanishi bevosita tabiiy resurslarni o'zlashtirish bilan bog'liqligini ifodalaydi. Bu esa global iqlim o'zgarishi sharoitida ekologik

talablarga rioya etishni talab etadi va o'ta muhim sanaladi. Shu bois, mazkur yo'nalishdagi vazifalar "O'zbekiston – 2030" strategiyasida qat'iy belgilab o'tilgan. Mazkur strategiyaga ko'ra, tog'-kon sanoatida ekologik talablar va atrof-muhit muhofazasi me'yorlarini xalqaro standartlar asosida belgilash dasturini ishlab chiqish, bunda atrof-muhitga chiqariladigan ifloslantiruvchi moddalarni ekologik talablar doirasidan oshmasligini ta'minlash va ekologik menejment tizimini joriy etish choralarini nazarda tutish belgilangan.

Shu bois tog'-kon sanoatida ekologik talablar va atrof-muhit muhofazasi me'yorlarini xalqaro standartlar asosida belgilash dasturi ishlab chiqilgan. Dasturga asosan atrof-muhit muhofazasiga qaratilgan quyidagi maqsadlar belgilab olingan (Йиллик ахборотнома, 2023):

atrof-muhit ifloslanishining oldini olish;

▪ texnogen ta'sirdan zararlangan yerlarni qayta tiklash;

▪ moddiy, energetik, texnik, ekologik va moliyaviy resurslar sarfini kamaytirgan holda mineral xom ashyodan to'liq foydalanish;

▪ ISO 14001:2015 xalqaro standarti asosida ekologik menejment tizimining samarali ishlashini ta'minlash va takomillashtirish.

Demak, davlat tomonidan iqtisodiyot tarmoqlarida tabiiy kapitalni jamg'arish siyosati barcha jabhalarni qamrab olgan, majmualiy, ekotizimli yondoshuv bilan amalga oshiriladi. Bunda asosiy mexanizm sifatida ma'muriy, iqtisodiy, ijtimoiy va axborot dastaklarini ajratib ko'rsatish mumkin. Jumladan, ma'muriy mexanizmlar iqtisodiyot tarmoqlarining atrof-muhitga zarar yetkazmasligi uchun qanday standartlarga qat'iy rioya qilish zarurligini belgilab beruvchi me'yoriy-huquqiy cheklovlar hisoblanadi. Ushbu mexanizm orqali belgilangan tartiblarga zid hatti-harakatlar amalga oshirilganda korxonalar va tashkilotlarga nisbatan sanksiyalar qo'llaniladi. Masalan, sanoat ishlab chiqarishida ma'lum moddalarni ishlab chiqarish, qishloq xo'jaligi ishlab chiqarishida ayrim moddalarni qo'llash va boshqa xatti-harakatlarni ta'qiqlashda ma'muriy dastaklardan foydalaniladi. Shu bois ma'muriy dastaklar me'yoriy-huquqiy cheklovlarni ishlab chiqish, tartibga solish va nazorat qilish jarayonlaridan tashkil topgan bo'ladi.

Xulosa va takliflar.

Xulosa qilib aytadigan bo'lsak, aholi sog'lom va munosib hayot kechirishining muhim omili — ekologik barqarorlikni kafolatlash, tabiiy resurslarning barcha majmuini muhofaza qilish hamda ulardan oqilona foydalanishni so'zsiz ta'minlashga qaratilgan tashkiliy-huquqiy asoslarni takomillashtirish doimiy ustuvorlik kasb etmoqda. Zero, dunyoda ekologik barqarorlik nainki tabiat, balki insoniyatning hayot-mamot masalasiga aylanib borayotgan ayni paytda atrof-muhit muhofazasini yaxshilashga dolzarb vazifa sifatida qarash, kelajak avlodlarimiz taqdiri uchun ham mas'ul ekanimizni unutmaslik darkor.

O'zbekistonda tabiiy kapitalni jamg'arishning makro darajadagi usullari institutsional asoslar, tabiiy va texnologik ko'rsatkichlardan iborat.

Ekologiya, atrof-muhitni muhofaza qilish va iqlim o'zgarishi vazirligi, Iqtisodiyot va moliya vazirligi, Energetika vazirligi, Investitsiyalar, sanoat va savdo vazirligi, Qishloq xo'jaligi vazirligi, Suv xo'jaligi vazirligi, Qurilish va uy-joy kommunal xo'jaligi vazirligi, Transport vazirligi, Favqulodda vaziyatlar vazirligi va Sog'liqni saqlash vazirligi tomonidan tabiiy kapitalni jamg'arishning institutsional rivojlanishiga ko'maklashish va ixtisoslashgan guruhlarni tashkil qilish bo'yicha hamkorlik mexanizmi yo'lga qo'yishda mahalliy hokimiyat organlari tarkibidagi tashkilot tuzilmalarining tegishli texnik-iqtisodiy salohiyati yetarli emas.

Shu bois, mintaqalarda ilmiy-texnik taraqqiyot, sanoat tarmoqlarida ilmiy sohalarning rivojlantirish, qishloq xo'jaligi ishlab chiqarishining sanoat asoslariga ko'chirish, xizmatlar sohasining yalpi ichki mahsulotdagi ulushini oshirib borish, turizmni rivojlantirish, ishlab chiqarishni transport va xomashyoga bog'liqligining qisqartirish, mehnat munosabatlarining takomillashtirish va xalqaro iqtisodiy munosabatlarning rivojlantirish kabi chora-tadbirlarni tabiiy kapitalni jamg'arish bilan uzviy bog'liqlikda amalga oshirish maqsadga muvofiq.

Adabiyotlar/Lumepamypa/Reference:

Farmon (2022) O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2022 yil 28 yanvardagi PF-60-son "2022-2026 yillarga mo'ljallangan Yangi O'zbekistonning taraqqiyot strategiyasi to'g'risida"gi farmoni. <https://lex.uz/docs/5841063>

Farmon (2023) O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2023 yil 11 sentabrdagi PF-158-son "O'zbekiston – 2030" strategiyasi to'g'risida"gi farmoni. <https://lex.uz/docs/6600413>

Parijskoe soglashenie <https://lex.uz/docs/5075088>

Qaror (2019) O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2019 yil 4 oktabrdagi PQ-4477-son "2019-2030 yillar davrida O'zbekiston Respublikasining "yashil" iqtisodiyotga o'tish strategiyasini tasdiqlash to'g'risida"gi qarori. <https://lex.uz/docs/4539502>

Qonun (2018) O'zbekiston Respublikasining 1992 yil 9 dekabrda 754-XII-son "Tabiatni muhofaza qilish to'g'risida"gi Qonuni. <https://lex.uz/docs/1071153>. Isadjanov A. Barqaror rivojlanish maqsadlari: ustuvor yo'nalishlari va dolzarb vazifalari// Ilmiy tahliliy axborot. – Toshkent: № 1, 2018. – B. 96-97.

Qonun (2018) O'zbekiston Respublikasining 2018 yil 2 oktabrdagi O'RQ-491-son "Parij bitimini (Parij, 2015 yil 12 dekabr) ratifikatsiya qilish to'g'risida"gi Qonuni

Qonun (2019) O'zbekiston Respublikasining 2019 yil 21 maydagi O'RQ-539-son "Qayta tiklanuvchi energiya manbalaridan foydalanish to'g'risida"gi Qonuni. <https://lex.uz/docs/43468316>. Davыdenko L.N. Mestnye prirodnye resursy kak zalog inostrannykh investitsiy// J. Prirodnye resursy. – Minks: № 1, 2012. - S. 113-120.

Vaxabov A.V., Xajibakiyev SH.X. (2020) Yashil iqtisodiyot (Darslik). – Toshkent: Universitet, 2020. – B. 16-19.

Йиллик ахборотнома (2023)– Тошкент: Тоғ-кон ва геология вазирлиги,– Б. 17-18.